

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
48 sahifa, avgust, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafo Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	

AGRAR SOHADA RISKLARNING O'ZARO TA'SIRCHAN TARZDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

Baymirzaev Dilmurod Nematovich

Namangan davlat universiteti

"Menejment" kafedrası mudiri, i.f.f.d. (PhD)

E-mail: dilnazdon@gmail.com

+998934037778

ORCID: 0000-0002-6707-5109

Annotatsiya: Mazkur maqolada agrar sohada yuzaga keladigan risklarning o'zaro bog'liqligi va ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Risklarning "zanjirli reaksiyasi" (domino effekti) orqali fermer xo'jaliklari va agrofimlar faoliyatiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri aniqlangan. Risklarni aniqlash, tasniflash, baholash va boshqarishda kompleks hamda tizimli yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, risklarni boshqarishda innovatsion texnologiyalar, diversifikatsiya va sug'urta mexanizmlarining o'rni ko'rsatilib, zamonaviy risk-menejment tizimini joriy etish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: agrar risklar, zanjirli risklar, domino effekti, kompleks boshqaruv, risk-menejment, diversifikatsiya, sug'urta, innovatsion yondashuv, qishloq xo'jaligi barqarorligi.

Abstract: This article examines the interconnection and mutual influence of risks arising in the agricultural sector. The negative impact of the "chain reaction" (domino effect) of risks on the activities of farms and agricultural enterprises is analyzed. The importance of comprehensive and systematic approaches in identifying, classifying, assessing, and managing risks is substantiated. In addition, the role of innovative technologies, diversification, and insurance mechanisms in risk management is highlighted, and scientific recommendations for implementing a modern risk management system are proposed.

Keywords: agricultural risks, chain risks, domino effect, comprehensive management, risk management, diversification, insurance, innovative approach, agricultural sustainability.

Аннотация: В данной статье исследованы особенности взаимосвязи и взаимовлияния рисков, возникающих в аграрной сфере. Проведен анализ негативного воздействия "цепной реакции" (эффекта домино) рисков на деятельность фермерских хозяйств и агрофирм. Обоснована важность комплексного и системного подходов при выявлении, классификации, оценке и управлении рисками. Кроме того, показана роль инновационных технологий, диверсификации и страховых механизмов в управлении рисками, а также предложены научные рекомендации по внедрению современной системы риск-менеджмента.

Ключевые слова: аграрные риски, цепные риски, эффект домино, комплексное управление, риск-менеджмент, диверсификация, страхование, инновационный подход, устойчивость сельского хозяйства.

KIRISH

Har qanday iqtisodiy faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra noaniqlik va turli risklar ta'sirida amalga oshadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasi tabiiy-iqlim sharoiti, suv resurslari, tuproq unumdorligi va bozor kon'yunkturasi kabi omillarga bevosita bog'liqligi sababli iqtisodiyotning eng yuqori riskli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalarga ko'ra, agrar sektordagi risklar uch asosiy guruhga ajratiladi: ishlab chiqarish risklari (asosan ob-havo sharoiti, zararkunandalar va kasalliklar), bozor risklari (narx va talabning o'zgarishi) hamda moliyaviy-institutsional risklar (siyosiy va moliyaviy o'zgarishlar). Mazkur risklar o'zaro bog'liq va kompleks xarakterga ega bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida noaniqlik darajasini oshiradi. [4]

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) hisobotiga ko'ra, so'nggi 30 yil (1993–2023) davomida tabiiy ofatlarning qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligiga global ta'siri natijasida qishloq xo'jaligi ekinlari va chorvachilik mahsulotlarining umumiy qiymati taxminan 3,8 trillion AQSh dollariga teng hajmda nobud bo'lgan. Bu miqdor yillik jahon qishloq xo'jaligi YAIMining 5 foizdan ortig'iga to'g'ri keladi. Agar baliqchilik, suv va o'rmon xo'jaligi kabi tarmoqlardagi yo'qotishlar ham inobatga olinsa, ushbu ko'rsatkich yanada yuqori bo'ladi. [1]



Hozirgi globallashuv sharoitida iqlim o'zgarishi, suv resurslariga bo'lgan talabning ortishi va energiya narxlarining o'sishi agrar risklarni yanada keskinlashtirmoqda. Shu sababli, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda risklarni kompleks, ilmiy asoslangan holda aniqlash, baholash va samarali boshqarish iqtisodiy barqarorlik hamda rivojlanishning muhim shartiga aylanmoqda. Xususan, sohadagi risklarni aniqlash va baholash jarayonida zamonaviy innovatsion metodologik yondashuvlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Risklarni tahlil qilishning zamonaviy usullari agrar korxonalarining turli risklarga qarshi chidamliligini oshirish, moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirish hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligida yuzaga keladigan risklar va ularni boshqarish masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ham e'tiborga olinmoqda. [7,8] Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, agrar sohadagi risklar o'zining murakkabligi, ko'p omilligi va zanjirli ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Xususan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) agrar risklarni xalqaro miqyosda tizimli ravishda baholash va boshqarish zarurligini ta'kidlaydi. Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan "Agricultural Sector Risk Assessment" metodologiyasida risklarni aniqlash, tasniflash va baholashda sifat hamda miqdoriy yondashuvlar, matematik modellashirish va prognozlashtirish usullarining o'рни alohida qayd etilgan.

Mazkur yondashuv risklarning "zanjirli" yoki "domino effekti" tarzida yuzaga kelishini hisobga olishni taklif etadi. [5] Shuningdek, agrar risklarni boshqarishning samarali vositalari sifatida diversifikatsiya, agrar sug'urta, xedjlash, zaxira fondlari, davlat kafolatlari, raqamli monitoring va agroinnovatsiyalar kabi mexanizmlar ilgari surilgan. [2] Zamonaviy agrotekhnologiyalar va axborot-kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish orqali risklarni oldindan bashoratlash va ularning ta'sirini yumshatish imkoniyatlari ilmiy asoslangan tarzda tavsiya etilmoqda. Agrar risklarning zanjirli xususiyatini aniqlash, ularni tizimli tarzda baholash hamda kompleks boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish hozirgi zamon ilmiy-amaliy tadqiqotlarining dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Ushbu maqola aynan mana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, agrar risklarning o'zaro ta'sirchanligini aniqlash va ularni boshqarishda kompleks yondashuvlar asosida takliflar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada agrar sohadagi risklarning o'zaro bog'liqligi va ta'sirchan tarzda yuzaga kelish xususiyatlarini aniqlash, ularni tahlil qilish hamda samarali boshqarish yo'llarini asoslash maqsad qilingan. Tadqiqotda ilmiy-nazariy qarashlar va amaliy yondashuvlar uyg'unlashtirilgan bo'lib, ilmiy-nazariy tahlil, tizimli yondashuv, grafik modellashirish va kompleks tahlil usullaridan foydalanildi.

Agrar sohada risklar bilan bog'liq mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda milliy strategiyalar o'rganildi. Risk turlarining tasnifi, ular o'rtasidagi bog'liqlik va zamonaviy baholash usullari yoritildi. Risklarning bir-biriga zanjirli bog'liqlikda shakllanishi sababli, ularning kompleks xarakteri tizimli ravishda tadqiq etildi.

Kompleks tahlil asosida ishlab chiqarish, moliyaviy va bozor risklarining birgalikdagi ta'siri modellashirildi hamda ularning fermer xo'jaliklari iqtisodiy barqarorligiga ta'siri baholandi. Tadqiqot natijasida ilmiy asoslangan, tizimli va amaliy yondashuvlar asosida agrar sohada risklarni kompleks boshqarish metodologiyasi shakllantirildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Agrar korxonalar — iqtisodiy jihatdan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlardir. Ularning ishlab chiqarish faoliyati yuqori resurs talabchan bo'lib, mavsumiy va tashqi omillarga kuchli darajada bog'liqdir. Ishlab chiqarish jarayonida tabiiy omillar — qulay ob-havo sharoiti, tuproq unumdorligi, suv ta'minoti va boshqa resurslarning mavjudligi — alohida ahamiyat kasb etadi. [9]

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'pincha mavsumiy xarakterga ega bo'lib, bu ishlab chiqarish va sotish sikllarining turli davrlarda amalga oshirilishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, aksariyat qishloq xo'jaligi mahsulotlari (meva-sabzavotlar, sut, go'sht va boshqalar) qisqa muddatda o'z sifatini yo'qotadi, bu esa ularni saqlash, tashish va sotish jarayonida qo'shimcha xarajatlar talab etilishiga olib keladi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxi bozordagi talab va taklif hajmiga juda sezgir bo'lib, narxlarning beqarorligini yuzaga keltiradi. Bu holat esa qishloq xo'jaligi korxonalari daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. [6]

Yuqoridagi omillar qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatida risklarni, ya'ni kutilgan natijalarga erishmaslik yoki iqtisodiy zarar ko'rish ehtimolini yuzaga keltiradi. Agrar sohada risklar ko'p hollarda bir-biriga bog'liq va o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, mavsumiy qurg'oqchilik hosildorlikni pasaytiradi, bu esa fermer xo'jaligi daromadining kamayishiga, natijada esa kreditni qaytarish qobiliyatining cheklanishiga olib keladi.

Ilmiy adabiyotlarda bunday holat "kompleks risklar" yoki "zanjirli risklar" deb ataladi. [3] Risklar o'rtasidagi zanjirli aloqa — bu bir risk yoki riskli omilning paydo bo'lishi boshqa risklarning faollashuviga sabab bo'lish jarayoni bo'lib, risklarning "zanjirli reaksiyasi" yoki "domino effekti" tarzida bir-biriga ta'sir ko'rsatishi bilan xarakterlanadi (1-rasm).



1-rasm. Agrar sohada risklarning bir-biriga bog'liq va o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari


Risklarni kompleks boshqarish — bu risklarning barcha turlarini bir vaqtning o'zida, ularning zanjirli ta'sirlarini hisobga olgan holda tahlil qilish va samarali nazorat qilish jarayonidir. Ushbu yondashuv fermer xo'jaliklari va agrofimalarning iqtisodiy barqarorligi, daromadlarining barqaror o'sishi hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. [1]

Agrar sektorda ma'lum bir risk omili boshqa bir qator risklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, qurg'oqchilik tabiiy risklardan biri sifatida suv ta'minotida uzilishlarni keltirib chiqaradi. Bu esa hosilning kamayishiga, natijada fermer xo'jaliklari daromadining pasayishiga olib keladi. Daromadning kamayishi moliyaviy imkoniyatlarni cheklaydi, to'lovlarni va kredit majburiyatlarini o'z vaqtida bajarolmaslik holatini yuzaga keltiradi hamda xo'jaliklarda moliyaviy resurslar tanqisligini kuchaytiradi. Hosildorlik yoki daromad yetarli bo'lmaganda, fermer xo'jaliklari texnologik investitsiyalar, sifatli urug'lik, o'g'it va himoya vositalarini xarid qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Bu esa hosildorlikning yanada pasayishiga va biologik risklarning kuchayishiga olib keladi.

Hosilning kamayishi hamda biologik risklarning ortishi oqibatida bozorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari taqchilligi yuzaga keladi, narxlar oshadi, aholining xarid qobiliyati pasayadi va bu hatto ijtimoiy risklarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois agrar risklarni boshqarishda kompleks va zanjirli tahlil alohida ahamiyatga ega. Bir-biriga bog'liq risklarni aniqlash va ularning o'zaro ta'sirini baholash risklarni kamaytirish bo'yicha samarali yechimlar — sug'urta tizimini rivojlantirish, zahira fondlarini shakllantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va boshqa choralarni — ishlab chiqish imkonini beradi.

Agrar risklarni kompleks boshqarish — risklarni yagona va tizimli tarzda, ularning o'zaro bog'liqligi hamda ta'sirchanligini inobatga olgan holda, ilmiy asoslangan va amaliy yechimlar orqali bartaraf etish yoki yumshatish jarayonidir. Bu jarayon quyidagi asosiy bosqichlar va mexanizmlar orqali amalga oshiriladi (2-rasm).



2-rasm. Agrar risklarni kompleks boshqarish jarayoni

Agrar risklarni kompleks boshqarish bo'yicha barcha jarayonlar o'zaro bog'liq bo'lib, sikl shaklida doimiy ravishda yangilanib boradi. Har bir bosqichda olingan ma'lumot va erishilgan natijalar keyingi bosqichga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kompleks boshqarishning asosiy maqsadi — risklarni integral, tizimli hamda innovatsion yondashuv asosida maksimal darajada kamaytirishdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agrar sohada risklarning bir-biriga bog'liq va o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lishini bartaraf etish, ya'ni "zanjirli risklar"ni samarali boshqarish uchun qishloq xo'jaligida risklarning o'zaro bog'liqligi va ta'sir zanjirini baholashda kompleks risk-menejment tizimini joriy etish, ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida risklarni muntazam kuzatish va ma'lumot almashish tizimini yo'lga qo'yish, risklarni modellashtirish hamda prognozlashda ularning o'zaro bog'liqligini ilmiy asosda hisobga olish, risklar zanjirining yuzaga kelmasligi uchun ishlab chiqarish (hosildorlik), mahsulot va bozor turlarini diversifikatsiyalash, shuningdek sug'urta instrumentlarini kengaytirish, risklarning kompleks namoyon bo'lishini oldini olish, to'lov mexanizmini tezlashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda sug'urta indeksi hamda integral agrar sug'urta dasturlarini joriy etish, iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslarini tejash va zamonaviy agrotexnika yo'nalishida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali risk manbalarini ilmiy asosda kamaytirish, fermer xo'jaliklari uchun o'quv hamda maslahat dasturlari va real vaqtda axborot yetkazib beruvchi "agromaslaxat tizimi" platformasini tashkil etish, shuningdek mamlakat va mintaqaviy darajada risklarni boshqarish asosida davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan risklarning zanjirli xususiyatlariga mos ravishda risklar monitoringi, risk xaritasi va tezkor chora-tadbirlar strategiyasini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Qishloq xo'jaligida risklarning bunday o'zaro bog'liq va ta'sirchan namoyon bo'lishi agrar tarmoq iqtisodiy barqarorligiga jiddiy xavf tug'diradi, chunki tadqiqotlar natijasida agrar tarmoqda ishlab chiqarish (tabiiy-iqlim va biologik), bozor va moliyaviy-institutsional risklar ko'pincha kompleks va zanjirli tarzda yuzaga kelishi, birgina risk omilining kuchayishi boshqa bir qator risklarning faollashuviga sabab bo'lib, "domino effekti" orqali xo'jaliklarning barqarorligiga jiddiy putur yetkazishi aniqlangan. Risklarning ushbu "zanjirli" tabiati ularni kompleks va integral yondashuv asosida tahlil etishni talab etadi hamda zamonaviy risk-menejment tizimida risklarni aniqlash, baholash va boshqarishda statistik, modellashtirish, prognozlash va sug'urta instrumentlaridan birgalikda foydalanish boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois risklarni modellashtirish, mahsulot va bozor diversifikatsiyasi, sug'urta tizimlarini rivojlantirish, innovatsion agrotexnika hamda real vaqtda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha takliflar risklarning "domino effekti"ni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, davlat va mintaqaviy dara-



jada risklar monitoringi, risk xaritasi va tezkor chora-tadbirlar ishlab chiqish orqali butun agrar tizimning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mumkin bo'ladi. Demak, agrar risklarni boshqarishda kompleks, ilmiy asoslangan va zamonaviy yondashuvlardan foydalanish risklarni kamaytirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. FAO. 2023. The Impact of Disasters on Agriculture and Food Security 2023 – Avoiding and reducing losses through investment in resilience. Rome. <https://doi.org/10.4060/cc7900en>
2. Hazell, P. Agricultural Risk Management Tools: A Conceptual Framework. IFPRI Discussion Paper. 2020.
3. Marianne S.E., Jan E. A strategic and tactical model for managing complex risks in social systems. International Journal of Disaster Risk Reduction. 128 (2025).
4. Risk Management - Risk in Agriculture | Economic Research Service
5. World Bank. Agricultural Sector Risk Assessment: Methodological Guidance for Practitioners. 2016.
6. Асеева А. А., Башкатова В. Я. Сезонность сельскохозяйственного производства и ее влияние на рынок труда // Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии. 2014. №8.
7. Бекмуродов Н.Х. Қишлоқ хўжалигини стратегик ривожлантиришнинг устувор йўналишлари ва уни амалга ошириш йўллари. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2021, 4(140);
8. Файзуллаева Т. Р., Сабурова З. Х. Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг ташкилий-иқтисодий механизмлари. International scientific and practical conference "global ecological problems, desertification and food security" May 24, 2024.
9. Зотов В. П., Грязнова Н. Л. Формы организации хозяйств в аграрном секторе экономики // Техника и технология пищевых производств. 2012. №4 (27).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100